

7-SINF "ONA TILI" DARSLIGIDA BERILGAN NUTQ SO'ZLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHGA OID O'QUV TOPSHIRIQLAR TAHLILI

Djo'rayeva Nigina G'ayratovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali talabasi

Annotatsiya: *Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktabining 7-sinf o'quvchilarida nutq so'zlash ko'nikmasini rivojlantirish bosqichlari, usul va metodik tavsiyalar hamda o'quv topshiriqlari tahlili haqida fikr yuritiladi. Nutq so'zlashning dastlabki talablaridan biri sifatida adabiy til me'yorlarini egallash, so'z boyligini oshirish va o'z nutqida o'zgaralar fikridan unumli foydalanish.*

Kalit so'zlar: *nutq so'zlash, gapirish, tinglab tushinish so'zlash, so'z boyligi, talaffuz ko'nikmasi, o'zgaralar nutqi.*

АНАЛИЗ УЧЕБНЫХ ЗАДАЧ, СВЯЗАННЫХ С ФОРМИРОВАНИЕМ НАВЫКОВ ГОВОРЕНИЯ, ПРИВЕДЕННЫХ В УЧЕБНИКЕ «РОДНОЙ ЯЗЫК» ДЛЯ 7 КЛАССА.

Джураева Нигина Гайратовна

Студентка Каттакорганского филиала Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова

Аннотация: *В статье рассматриваются этапы развития речевых навыков у учащихся 7-го класса общеобразовательной школы, методические и методические рекомендации, а также анализ учебных задач. Литературность как одно из начальных требований овладения языковыми нормами говорения, увеличения словарного запаса и эффективно использовать мнение других в своей речи.*

Ключевые слова: *говорение, говорение, понимание речи на слух, словарный запас, навыки произношения, речь других людей*



ANALYSIS OF EDUCATIONAL TASKS RELATED TO THE FORMATION OF SPEAKING SKILLS GIVEN IN THE 7TH GRADE "MOTHER TONGUE" TEXTBOOK

Djo'rayeva Nigina G'ayratovna

Student of Kattakorgan branch of Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Abstract: *The article discusses the stages of development of speaking skills in the 6th grade students of general secondary school, method and methodical recommendations, and the analysis of educational tasks. Literary as one of the initial requirements of speaking mastering language standards, increasing vocabulary and effectively using the opinions of others in one's speech.*

Key words: *speaking, speaking, listening comprehension speaking, vocabulary, pronunciation skills, speech of others.*

Kirish. Ona tili darsliklarida nutq ko'nikmasini shakllantirish jadal rivojlanib bormoqda. Darsliklar o'quvchilarning mustaqil fikrga ega bo'lishlariga qaratilgan bo'lib o'qib tushunish, tinglab tushunish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Nutq shakllaridan og'zaki nutq muloqot jarayonida ko'p qo'llaniladi, o'z faoliyati davomida inson kompetensiyalarini nutq so'zlash orqali namoyon qiladi. Shu ma'noda, o'quvchini umumta'lim maktabida nutq so'zlashga tayyorlash lozim. Ona tili ta'limida nutqiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, o'quvchilarda o'z fikrini og'zaki shaklda ravon ifodalash ko'nikmasi ijtimoiy hayot uchun juda zarur.

Tadqiqotchi M. Djakbarovanning ta'kidlashicha " O'quvchilarda nutq so'zlash ko'nikmasini rivojlantirishda matnni o'qib tushunish, tinglab tushunish hamda matn mazmuni ustida mantiqiy fikrlashga yo'naltiruvchi topshiriqlarni ishlab chiqish samarali hisoblanadi. Demak, bugungi kunning eng muhim masalasi – ona tili ta'limini hayotga yaqinlashtirish, amaliy ahamiyatini kuchaytirishdir. Ona tili orqali o'quvchi tafakkurida olamning lisoniy manzarasi, milliy madaniyatlar shakllanadi. Agar ona tili oddiy o'quv predmeti emas, qadriyat sifatida o'qitilsa, o'quvchilarda o'z-o'zidan teran tafakkur va milliy g'urur shakllanadi. Shunda ona tilini o'rganishga o'quvchilarda katta qiziqish uyg'onadi. Ona tili orqali o'quvchilar milliy mentalitetni, hayotni, xalqning madaniy merosini o'rganishlari kerak. Albatta, bu pragmatik xarakterdagi o'quv topshiriqlari ishlab chiqish orqali amalga oshadi. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar savol va topshiriqlar asosida tilning amal qilish



qoidalarini o'rganadilar. Mashq tarkibida berilgan gaplar, matnlar o'quvchining lug'at boyligini oshirishga xizmat qiladi, biroq ular ustida qanday ish olib borish hali muammoligicha qolmoqda. Ona tili darslarida anglash, fahmlash, nutq so'zlash, insho yozishni o'rgatibgina qolmay, balki topshiriqlar orqali o'quv adabiyotlariga yo'naltirilsa, ona tilining jonli va tabiiy til ekanligiga ham ishonch hosil qilishadi [7,8]

G'.Hamroyevning ta'kidlashicha, muammoning bir uchi yana o'rta umumta'lim maktablarida ona tili o'qitish masalasiga borib taqaladi. Adabiy talaffuz – madaniyatlilik belgisi. O'rta umumta'lim tizimida 5-sinfdan boshlab talaffuzning asosiy birligi hisoblangan nutq tovushlari “Nutq so'zlash” bo'limi tarkibida tizimli o'qitila boshlaydi. “Nutq so'zlash” bo'limi ta'limi taqozosiga ko'ra shu yerda o'quvchilarga nutq tovushlari bilan birga to'g'ri talaffuz hamda imlo qoidalarini singdirish talabi ham qo'yiladi.[17]

Zamonaviy darsliklarda topshiriqlar ma'lumotlarni xotiraga kirituvchi qurilma vazifasini bajaradi. O'quvchi tafakkuri, so'z zaxirasini boyitmasdan turib, uning ravon, mantiqan izchil, ta'sirchan nutqi haqida gap bo'lishi mumkin ham emas. Bugun dars jarayonida juda ko'p qo'llanilayotgan “Matn tuzing” qabilidagi topshiriqlar endi o'zini oqlamayapti. Chunki o'quvchi o'zidagi nochor so'z boyligi, tor tafakkuri bilan istalgan mazmunni, kutilgan saviyada yozib bera olmaydi. O'quvchida ayni mavzuga aloqador muhim, foydali, ta'sirli ma'lumotlar juda kam yoki umuman bo'lmaydi. Bu borada mashqlarga ham alohida e'tibor berish lozim. Ayniqsa, malaka hosil qiluvchi nutq mashqlariga. Nutq mashqlari yoki kommunikativ mashqlar Ushbu mashqlarning maqsadi ona tilining kommunikativ vazifalarini amalga oshirish va kommunikativ ko'nikmalarni o'rgatish (tinglash, gapirish, o'qish va yozish)dir. Nutq mashqlari-har doim ijodiy mashqlardir. Bu har doim turli darajadagi nutq teran vazifalari ekan. Mashqlarning asosiy xarakteristikasi – pragmatizm va motivasiya (o'quvchilarning tashabbuskorligi, motivasiyasini ta'minlash) hisoblanadi.[82-83]

G'.Hamroyevning fikrlariga qo'shilgan holda o'quvchilarga dastlab ravon nutq so'zlashlari uchun so'z zaxirasi zarur. Hozirgi kunda yangi yaratilgan darsliklarning matn ko'rinishadi mashq va topshiriqlardan keyin lug'atlar bilan boyitilganini guvohi bo'layapmiz. Bu lug'atlar shunchagi qolib ketmasdan har kuni o'quvchilarga topshiriq tarzida yodlatish maqsadga muvofiqdir. Chet tilini o'rganayotgan har bir o'quvchi har kuni yangi lug'at yodlaydi o'zbek tilida ham mana shunday lug'atlarlar yodlansa lug'at boyligi gapirish, yozish va nutq so'zlash ko'nikmasi yanada rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, tilimizda mulozamat so'zlar mavjud bo'lib, undan nutq jarayonida samarali foydalanilmaydi. O'quvchilarni nutq so'zlashga o'rgatar






ekanmiz, ularning nutqini mulozamat soʻzlar bilan boyitish va nutq jarayonida oʻrinli qoʻllay olish koʻnikmasini rivojlantirishimiz zarur. Ingliz tilida uchraydigan “please”, “excusme”, “sorry” kabi birliklardan qolishmaydigan, nutqning koʻrki boʻlgan mulozamat soʻzlardan foydalanish ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ham eng yaxshi yechim hisoblanadi. Zero, xalqimiz aytganiday: “Tilingda boʻlsa boʻling, kulib turar iqboling”.

7-sinf ona tili darsligida nutqni rivojlantiruvchi koʻplab mashq va topshiriqlar berilgan. Xususan,

“Tutilmay gapiraman” mavzusi oʻquvchilarning ogʻzaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan boʻlib dars soati uchun 4 soat ajratilgan. Dastlab oʻquvchilarga rasm asosida bir qancha savollar berib oʻtilgan.



1. Nima deb o'ylaysiz, siz kamera oldida so'zlashga tayyormisiz? Hayotingiz davomida bunday holatni boshingizdan o'tkazganmisiz yoki bu jarayonni kuzatganmisiz?

2. 2-rasmini izohlang. Hammaning e'tiborini o'ziga jalb etish va ta'sirli nutq so'zlash uchun nima qilish kerak?

3. Uchinchi rasmda qanday holat tasvirlagan? Birinchi va ikkinchi so'zlovchining holatini tushuntiring.

4. 4-rasmdagi holatni izohlab bering. Shu holatning aksi qanday bo'lishi mumkin?

5. Jamoat joylarida va omma oldida so'zlashning o'zaro yaqinlar va oila a'zolari bilan suhbatlashishdan qanday farqi bor? Bunda nimalarga e'tibor berish kerak?

Bilamizki, hozirda umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ko'p qismi erkin va ravon so'zlashga qiynaladi. O'qituvchi tomonidan berilgan ma'lumotni yaxshi tushunadi, lekin o'z fikrini ayta olmaydi. O'quvchilarning ko'pchilik qismi tengdoshlari orasida noto'g'ri gapirib qo'yishdan yoki tutilib qolishdan va uning oqibatida uyalib qolishdan qo'rqadi. Shundan kelib chiqib, ushbu mavzu o'quvchilardagi kamchiliklarni aniqlashga va ularni bartaraf etish yo'llarini izlashga va ravon nutq so'zlashga aratilgan.

1-rasmda o'quvchilar shaxsiy kuzatishlari asosida javob berishiga qaratilgan. Bunda muayyan nutqiy vaziyatda o'quvchi o'zini qanday tutishi, bunday jarayonda inson o'zini qanday tutishi bilan bog'liq qoidalar haqida suhbat olib boriladi. Dastlab o'quvchilardan kamera oldida so'zlashga to'g'ri kelganda, qanday vaziyatga tushishi haqida fikrlari so'raladi. O'quvchilarning javoblaridan keyin o'qituvchi ularni bartaraf etish usullari, ya'ni ortiqcha qo'rquv, hayajonlanish, o'zini yo'qotib qo'yish kabi holatlarga tushmaslik haqida ma'lumot berib o'tadi. 2-rasmda berilgan shaxsning holati, uning his-tuyg'ulari haqida fikr bildiriladi. Ta'sirli va hammaning e'tiborini jalb qiladigan nutq so'zlashda tinglovchilar e'tiborini tortuvchi murojaat birliklariga rioya qilish, mavzuga mos turli ohangda gapirish, vaziyatga moslashish, kayfiyatini tushirmaslik, o'zini tutish kabi holatlarga e'tibor qaratish haqida tushuncha berib o'tilishi lozim. 3-rasmda nutq so'zlaydigan kishiga xos bo'lgan hayajon ifodalangan. Ushbu rasmdagi birinchi so'zlovchi o'zini erkin tutib, hayajonlarsiz nutq so'zlayotgan bo'lsa, ikkinchi so'zlovchi hayajonlanib, terga botib ketgani tasvirlangan. Bu orqali o'quvchilarga nutq so'zlash jarayonida ortiqcha hayajonlanish gapirayotgan gaplarini yo'qotib qo'yish, ovozda titroq, yuzda qizarish, fikrlarni tartibsiz bayon etish kabi holatlarga sabab bo'lishi mumkinligi tushuntirib o'tiladi. 4-rasmdagi holatni



izohlash jarayonida insonlar o'rtasida ijobiy munosabatlarni shakllantirish uchun qanday qoidalarga rioya qilish kerakligi haqida suhbat olib borilishi lozim.

1-topshiriq. Sinfdoxlaringiz og'zaki nutq ifodalashda qanday kamchiliklarga yo'l qo'yishadi? Mazkur topshiriq o'quvchilarning og'zaki nutqni tahlil qilish, xato va kamchiliklarni aniqlab tavsiya yoza olish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. Bunda o'quvchilar sinfdoshlarining og'zaki nutqini kuzatib, tahlil qilib yozishlari lozim. Tahlil qilish jarayonida quyidagilarga e'tibor qaratishlari aytiladi:

- sheva elementlari;
- nutq tezligi;
- tovushlar talaffuzi (aniqlik);
- urg'u...

Ushbu topshiriqdan keyin o'quvchilarning o'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan matn berilgan:

Ayrim bolalar o'ta tortinchoq bo'lib, ko'pchilik orasida so'zlashdan, fikrlari atrofdegilar tomonidan qabul qilinmay, izza bo'lishdan cho'chishadi. Ular doskaga chiqarilganda yoki tug'ilgan kunda tabrik uchun so'z berilganda terlab ketishadi. "Lom-mim" deyolmay hatto yig'lab yuboradigan tengdoshlarimiz ham bor. Bu holat ilmiy tilda peyrofobiya deb ataladi. Xatolarimiz uchun koyishlaridan, do'stlarimiz oldida kamchiliklarimizni aytib tanqid qilishlaridan, keyin ustimizdan kulib yurishlaridan hadiksirash esa atihifobiya deyiladi. O'z xohish-istaklarini, fikrini boshqalarga ayta olmaydigan bolalarda aybdorlik va nuqsonlilik komplekslari kuchli rivojlangan bo'ladi. Agar siz o'zingizda shunday qo'rquv alomatlarini payqagan bo'lsangiz, darhol kundalik tuting. Fikrlaringizni tushirib, eng yaqin do'stingizga bering va mulohazalarini sizga aytib borishini iltimos qiling. Unutmang, o'z fikringizni ochiq bayon etish huquqingiz bor. Garchi uni qabul qilmasalar ham o'z ovozingiz, o'rningiz borligini bildirib qo'ying.


O'quvchilar matnni o'qib chiqqanlaridan so'ng matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

1. Ayting-chi, peyrofobiya yoki atihifobiya kasalliklari haqida nimalarni bilib oldingiz?

Bu savol matnda eksplitsit (ochiq) ifodalangan ma'lumotlarni topishga qaratilgan. O'quvchilar matndan ushbu atamalarga berilgan ta'rifni topib, tushunganlarini bayon etishlari lozim.

Peyrofobiya – tortinchoqlik; ko'pchilik orasida so'zlashdan, fikrlari qabul qilinmay, izza bo'lib qolishdan qo'rqish.





Atixifobiya – xatolari uchun hammaning oldida tanqid qilinishdan, ustidan kulib yurilishdan hadiksirash.

2. O‘zingizda ushbu kasallikning alomatlari bor deb hisoblaysizmi? Qachon, qanday

vaziyatlarda shunday hissiyotlarni boshingizdan o‘tkazganingiz haqida gapirib bering.

Bu savol matndagi holatni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash orqali xulosa chiqarishga qaratilgan. O‘quvchilar o‘zlaridan kelib chiqib, nutq so‘zlaganda qanday holatlarni his qilishlarini bayon etishlari kerak.

3. Ushbu kasalliklarning oldini olish uchun muallif tomonidan berilgan tavsiya qay darajada yordam berishi mumkin? Sizda ham bu borada takliflar bormi

Bu savol matndan muallif maqsadini aniqlash hamda unga munosabat bildirishga qaratilgan. O‘quvchilar matndagi maslahatga munosabat bildirishlari hamda o‘zlari yangi tavsiya yaratishlari lozim.

4. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning tilimizda muqobili bormi? Javobingizni izohlang

Bu topshiriq o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga, atamalar bilan ishlash, ularni o‘zbek tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri olib kirish emas, balki o‘zbek tilidagi muqobili bilan nomlash mumkinligi haqida tushuncha hosil qilishlariga qaratilgan. O‘quvchilar fikri tinglangach, ushbu birliklar misollar bilan tushuntirib berilishi zarur.

Manashu mavzu orqali gap urg‘usi mavzusini ham tushuntirib o‘tish darslikka kiritilgan. O‘quvchilarga to‘g‘ri va ta‘sirchan nutq so‘zlay olishlari uchun urg‘uning ahamiyati haqida ma‘lumot berish lozim.



Gap tarkibidagi bo‘laklardan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq, ta’kidlab talaffuz qilinishiga gap urg‘usi yoki mantiqiy urg‘u deyiladi. Gap urg‘usi gapda e’tibor qaratilayotgan asosiy jihatni aniqlab beradi.

Sojida birinchi o‘rinni oldi. (“boshqa kishi emas, aynan Sojida”)

Sojida **birinchi** o‘rinni oldi. (“boshqa o‘rinni emas, aynan birinchi o‘rinni”)

Og‘zaki nutqda gap urg‘usining o‘rni erkin. Biroq yozuvda o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi gap urg‘usini olgan bo‘lak kesimdan bitta oldin joylashgani ma’qul.

Sojida teatrga **kecha** borgan edi. (qachon borgan)

Sojida kecha **teatrga** borgan edi. (qayerga borgan)

Notiqlik (ritorika) da gap urg‘usi muhim vosita sanaladi. Notiqning eng katta quroli bu – so‘z va ohang.

2-topshiriq. *Muhokama uchun savol. Yod olgan she’ringizdan to‘rt-sakkiz qatorini o‘qing. Qaysi bo‘lak ta’kidlab o‘qilishiga e’tibor qarating. Ayting-chi, she’rlarda oddiy gaplardan farqli ravishda gap urg‘usi qanday bo‘laklarga tushadi?*

Mazkur topshiriq gap urg‘usi, uning she’riy misralarda ifodalanishini tushunishga qaratilgan. Urg‘uni o‘quvchilarga tushunarli qilib yetkazish uchun o‘qituvchi she’riy parchalarga murojaat qilishi tavsiya qilinadi. Sababi she’rlar ma’lum bir intonatsiya bilan aytilib, unda pauza, urg‘ularga to‘xtalish kabi holatlar bo‘ladi. Bunda o‘quvchilar yodlagan she’rlarini ifodali qilib o‘qishlari, tinglovchilar nutqni kuzatgan holda urg‘uli gaplarni aniqlab, qayd etib borishlari lozim.

3-topshiriq. Omma oldida nutq so‘zlashga tayyorgarlik ko‘rish bilan bog‘liq 5 ta tavsiya yozing.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning ma’lumotlarni umumlashtirish, undan xulosa chiqarib, tartiblab yoza olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilarga dars davomida egallagan bilimlari asosida nutq so‘zlashga oid namunadagidek tavsiya yozib chiqishlari aytiladi. Ushbu topshiriqni o‘quvchilar og‘zaki tarzda aytib, keyin doskaga chiqib yozsa, yana ham tushunarli va qiziqarli bo‘ladi.




Namuna: *Nutqingizni qat'iy ohangda va o'zingizga bo'lgan ishonchni namoyon etgan holda boshlang*

Uyga vazifa. Gap urg'usi haqidagi qoidaga asoslangan holda quyida berilgan matndagi gaplarning urg'usini tanlang. Matnni audio shaklida yozing. Nutqingizni qayta-qayta eshitib ko'ring. Eshitish jarayonida yondaftarchangizga qanday kamchiliklarga yo'l qo'yganingizni belgilab boring.

Do'stim Ahmad! Bir-birimiz bilan tez-tez xat yozishib turamiz, deb va'dalashgan edik. Negadir o'shanda menga unchalik ishonqiramovding... Zaynab, sen Anqarada o'zingga yangi o'rtoqlar topgach, bizlarni esdan chiqarib yuborasan, degan eding. Mana, so'zimning ustidan chiqyapman. Demak, sizlarni unutmabman.

Anqaraga ko'chib kelganimizga bir hafta bo'ldi. Yangi uyga joylashib ham oldik. Senga ilgariroq xat yozishning iloji bo'lmadi. Chunki yangi maktabga endi qatnay boshladim. Yangi adresimizni ham kuni kecha dadamdan bilib oldim. Xat yozishni sendan boshlayapman. To'g'risini aytganda, o'qishlar avji qizib turganida maktabni tashlab, Istanbuldan chiqib ketishga hecham ko'nglim bo'lmovdi, ham sinfdosh o'rtoqlarimga o'rganib qolgan edim. Axir to'rt yildan ko'p birga o'qidik-da. Ammo ilojim qancha, dadam Anqaraga yangi ishga o'tdi. Uy ichi bilan ko'chib keldik. Yaqin og'aynilari dadamga Anqaradan yaxshiroq ish topib berishdi, bu haqda senga Istanbulda ham aytgan edim. Dadam uchta sinfdosh o'rtog'i bilan hozir bir firmada ishlayapti. Uchovi ham oilasi bilan bir binoda turisharkan. Ular dadamga ham ish, ham shu binodan bo'sh uy topib qo'yishibdi. Dadamning o'rtoqlari ham bola-chaqali ekan. Bir binoda to'qqiz bola bo'lib qoldik. Yoshlarimiz har xil. Beshtamiz bitta maktabga qatnaymiz. O'zim tengi bir bola bilan bir sinfda o'qiyapman. Ukam Metin yangi maktabdan, yangi o'rtoqlaridan yotsirab yuribdi. Men bo'lsam hammasiga darrov ko'nikib ketdim. Hayotda ro'y beradigan muhim voqealar haqida vozib turishga kelishib olgan edik. Yangi uv, yangi maktab, yangi





Mazkur topshiriq o'quvchilarning og'zaki nutqini shakllantirish, omma oldida nutq so'zlash jarayoniga tayyorlanish hamda o'z nutqi ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilar berilgan matnni o'qib, audio shaklida yozib olishlari hamda uni qayta tinglash davomida kamchiliklarini aniqlab, tuzatib borishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbek tilshunosligining zamonaviy yo'nalishlari 2023-yil 25-oktabr[1;7-8]
- 2.G'ofir Hamroyev "Ona tilidan o'quv topshiriqlar tuzish metodikasi"(monografiya)2021 [82-83]
- 3.Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy-metodik jurnali 2023 [7;17]
- 4."O'zbek tilining izohli lug'ati " A.Hojiyev 1982 1-2-j
ILOVA .Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi darsligi asosida yangi nashr Toshkent- 2022

